

QORA MOSH O'SIMLIGINI INTRODUKSION TANLASH,DON SIFATINI BAXOLASH VA SAQLASH JARAYONLARINI O'RGANISH.

Javlonbek To'rakeldiyev Ravshanbek o'g'li

**Farg'ona poliyexnika instituti "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki
ishlash texnologiyasi" kafedrası 1-kurs magistranti**

Tel:94 397-98-72

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7922880>

Annotatsiya. Qora mosh o'suv davrida sifat jixatidan farq qiladigan bir necha rivojlanish davrlarini kechiradi, bu xol oziqlanish jarayoniga xam tasir etadi. Qora mosh unib chiqish, gullash, meva tugish va pishishdan iborat rivojlanish davrlari bo'ladi. Tashqi muhi omillari qora mosh xosiliga va o'suv davri davomida qora mosh rivojlanishiga qanday tasir ko'rsatishini o'rganish natijalari o'simlik hayotini oltita davrga bo'lib chiqishni taqazo qiladi. O'simlik oziq moddalarni miqdor jixatdan xam, sifat jixatdan xam doimo bir xil talab qilmaydi. Bu omil o'simlikni o'sishi, rivojlanishi va umuman mavsum vaqtiga qarab turlicha bo'ladi. Bu jixatdan barcha dala ekinlari ikkita yani o'suv davri mobaynida qisqa va uzoq oziqlanadigan gruxlarga bo'linadi. Jumladan qora mosh o'simligi ham o'suv davri mobaynida uzoq muddat oziqlanadigan o'simlik xisoblanadi. U urug'dan unib chiqqandan boshlab o'suv davrining oxiriga qadar tuproqdagi oziq moddalarni o'zlashtirib boradi. Takroriy ekin sifatida ekilgan qora mosh o'simligini kuzgi sovuq urib ketganidan keyin uning o'suv davri tugaydi, bahor faslini o'rtalarida yerga qadalgan qora mosh urug'i odatda to'liq vegetatsiya davrini o'taydi.

Mosh – bir yillik o'tsimon o'simlik. Ildizlaridagi tuganak bakteriyalar orqali o'simlik o'zini azot bilan ta'minlaydi. Poyasi dumaloq ko'rinishda, qirrali. Bo'yi 30-130 sm gacha bo'lib, o'rtacha 50-60 sm, yaxshi shoxlanadi. Poyasi katta maydonni egallashi tufayli mexanizatsiya yordamida yig'ishtirish og'ir. Pishib yetilgan dukkaklari jigarrang, deyarli qora bo'ladi. O'simlik poyasidan osilib turadi, pishgandan keyin tez yig'ishtirilmasa chatnaydi. Urug'i mayda, sal cho'zinchoq; hajmi 3-5 mm, rangi sarg'imtir, yashil, qora bo'ladi.

Mosh issiqqa talabchan o'simlik bo'lib, urug'lari 10-12°C da una boshlaydi. Moshning urug'lari 20-22°C da 4-5 kunda unib chi-qadi. Bahorgi sovuqlarga chidamsiz. Yosh maysalari ham, katta voyaga etgan o'zsimliklari ham 1-2°C sovuqda halok bo'ladi.

Mosh yorug'likka talabchan o'simlik hisoblanadi. Qurg'oqchil sharoitda o'sa olmaydi. Mosh biologik xususiyatlariga ko'ra tuproqqa nisbatan talabchan emas. Qora, bo'z, o'tloq bo'z, qumoq, soz, sal sho'rlangan tuproqlarda yaxshi o'sib rivojlanadi. O'tloq bo'z tuproqlar O'zbekistonda mosh uchun eng yaxshi tuproq hisoblanadi. Tuproq tarkibida oziq moddalar kam bo'lsa ham mosh ildizidagi tuganak bakteriyalar yordamida o'zini o'zi azot bilan ta'minlaydi.

Mosh o'z-o'zidan changlanuvchi o'simlik. O'sish davri 80-120 kun. Takroriy ekilgan paytida o'sish davri bahorgiga qaraganda 15-10 kunga qisqaradi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda moshning 10 navi yetishtiriladi.

Kuzatishlarim davomida qora mosh o'simligi urug'idan yaxshi sharoitli tuproqqa ekilsa unib chiqish jarayoni tezroq bo'lishini kuzatdim. Masalan namlik, harorat va yorug'lik yetarli tuproqlarda unib chiqish jarayoni tez kichadi, bunda urug', urug' qobig'idagi ozuqa moddalarni tezlik bilan parchalanishi hisobiga maysaning rivojlanish jarayoni tezlashadi. Endosperm harorat yetarli bo'lsagina va albatta namlikni hisobiga ham metabolitik dissimilatsiya

jarayonini jadallik bilan o'zida kechiradi va bu qora mosh o'simligini tezda unib chiqishida asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi..

References:

1. Ubaydullaev M.M.U., Askarov Kh.Kh., Mirzaikromov M.A.U. EFFECTIVENESS OF NEW DEFOLIANTS. Theoretical & Applied Science. 2021. № 12 (104). С. 789-792. https://www.elibrary.ru/keyword_items.asp?id=21526423
2. Назирова Рахнамохон Мухтаровна, Мирзаикромов Мирзабобур Алишер Угли, Усмонов Нодиржон Ботиралиевич Влияние процесса охлаждения зерна кукурузы на его сохраняемость, количество потерь и на заражённость насекомыми-вредителями // Проблемы Науки. 2020. №6-2 (151). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-protsessa-ohlazhdeniya-zerna-kukuruzy-na-ego-sohranyaemost-kolichestvo-poter-i-na-zarazhyonnost-nasekomymi-vreditelyami>
3. Mirzayeva, M. A., Mullajonova, S. S., & Mirzaikromov, M. A. (2022). THE GRAPE PROCESSING TECHNOLOGY FOR WINE PRODUCTION. International Journal of Advance Scientific Research, 2(04), 7-10. <https://sciencebring.com/index.php/ijasr/article/view/43/33>
4. Мирзаикромов М.А. ВЛИЯНИЕ ОРГАНИЧЕСКИХ И МИНЕРАЛЬНЫХ УДОБРЕНИЙ НА УРОЖАЙНОСТЬ ХЛОПКА // Universum: технические науки: электрон. научн. журн. 2022. 5(98). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13724>
5. Mirzaikromov, M. A. (2023). EFFECT OF DETONATION SOIL SOFTENING ON CARBONATE AND SULFATE SALTS. Open Access Repository, 4(04), 41-52. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=tmV-6nwAAAAJ&citation_for_view=tmV-6nwAAAAJ:_FxGoFyzp5QC